

ANIQLOVCHI ERGASH GAPLARNI TRANSFORMATSIYALASHDAGI**SEMANTIK-SINTAKTIK JARAYONLAR**

Ibragimova Latofat Sunnatovna

JDPU katta o'qituvchisi,

Annatatsiya.

Ushbu maqolada aniqlovchi ergash gaplarni transformatsiyalash mumkinligi e'tirof etilgan. Nutq jarayonida aniqlovchi ergash gaplar transformatsiyaga uchrashi mumkin.

Kalit so'zi: transformatsiya, semantik, sintaktik, aniqlovchi, denotativ, predikativ, bosh bo'lak

Ergashgan qo'shma gaplar ikki uzviy qismlardan tashkil topib, bir umumiy fikrni ifodalash uchun xizmat qiladigan gap turidir. Shunday ekan, ergashgan qo'shma gaplarning boshqa turlari kabi aniqlovchi ergash gaplar ham nutq jarayonida parchalanishi-transformatsiyaga uchrashi mumkin. Albatta, transformatsiyalanish jarayonida ergash gaplarning tuzilishi, turi, havola bo'laklarning miqdori va bog'lovchi vositalar ham ahamiyatga egadir. Ma'lumki, har qanday ergash gaplarni, jumladan, aniqlovchi ergash gaplarni ham transformatsiyalashda, avvalo uning qismlaridan anglashilgan mazmun munosabatlari e'tiborga olinishi lozim. Aks holda ergashgan qo'shma gap transformatsiyalangandan so'ng undagi mazmun anglashilmay qolishi mumkin. Aniqlovchi ergash gaplar qurilishi va tabiatiga ko'ra ikki ko'rinishga ega: 1) bir havola bo'lakli aniqlovchi ergash gaplar, 2) ikki havola bo'lakli aniqlovchi ergash gaplar. Masalan: Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el qoshida manzur va mo'tabar bo'lsin (O.). Yer yuzida shunday tarbiya borki, bu tarbiyani ko'rgan kishi o'z umrini samarasiz, xudbinlik natijasi bo'lgan ishlarga sarf qilmaydi (A.Q.). ushbu aniqlovchi ergash gaplarning birinchisida bir havola bo'lak ikkinchisida esa ikki havola bo'lak ishtirok etmoqda.

Yuqoridagi gaplar mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda ikki denotativ voqea ifodalangan. Ammo bosh gapda ifodalangan denotativ voqea tugallanmaganligi sezilib turibdi. Bu yetishmovchilik esa ergash gapdagi denotativ voqea bilan mazmuniy bog'liqlikda yakun topadi. Chunki bosh gapdagi denotativ voqeaning kesim mazmuni ergash gapdagi denotativ voqea bilan teng keladi. Demak bosh gapdagi "shunday" predikativ o'z tarkibiga ergash gap mazmunini singdiradi, ya'ni ergash gap tarkibidagi denotativ voqeani o'zida mujassamlashtiradi. Shunday ekan aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar qismlaridan anglashilayotgan mazmun o'zaro zich aloqada bo'ladi. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan. Yuqoridagi aniqlovchi ergash gaplarni transformatsiyalash mumkin. Bu jarayon quyidagicha sodir bo'ladi.

Yuqoridagi birinchi gap bir havola bo'lakli aniqlovchi ergash gap hisoblanadi. Unda "shunday" so'zidan iborat havola bo'lak ishtirok etmoqda. U bosh gapdagi "kutubxona" so'zi

bilan ifodalangan to'ldiruvchining aniqlovchisi bo'lib kelgan. Bu o'rinda bosh gapda ham, ergash gapda ham alohida-alohida denotativ voqea ifodalangan.

Mazkur bir havola bo'lakli aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapda "shunday" havola bo'lak mavjud bo'lib, u ergash gapdagi "butun el qoshida manzur va mo'tabar bo'ladigan" (bino) aniqlovchisiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu gapning transformatsiyaga uchragan ko'rinishi quyidagicha sodir bo'ladi: "Biz butun el qoshida manzur va mo'tabar bo'ladigan kutubxona bino qilaylik". Demak, bu o'rinda bosh gapdagi "shunday" havola bo'lagi tushirilib qoldiriladi va ergash gap bosh gap tarkibiga singdiriladi. Bunday gaplar transformatsiya qilinish jarayonida ergash gap tarkibidagi ayrim birliklar transformatsiyalangan sodda gap tarkibida takrorlanishi ham mumkin.

Ikki havola bo'lakli aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar ham sodda gaplarga transformatsiya qilinadi. Masalan: "Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi". Ushbu ergash gapli qo'shma gapda bosh gapdagi voqea sub'ekti, ya'ni ega aniqlanmoqda. Ergash gapda ifodalangan denotativ voqeaning sub'ekti va bosh gapdagi denotativ voqeaning sub'ekti sifatida "ko'ngli", "yo'li" so'zlari orqali ifodalanmoqda. Ushbu so'zlar qo'shma gapni har ikki qismida ega vazifasida kelmoqda. Ushbu gapning shakllanishida "kimning", "uning" havola bo'laklari ishtirok etmoqda.

Ushbu ergashgan qo'shma gapning transformatsiyalanish jarayoni quyidagicha kechadi: "Ko'ngli to'g'ri kishining yo'li ham to'g'ri bo'ladi". Ushbu gapda qo'shma gapda qatnashgan "kimning", "uning" havola bo'laklari tushirib qoldiriladi va har ikkala gapda ifodalanayotgan fikr bitta ajralmas sodda gapga singdiriladi. Ko'rinadiki, aniqlovchi ergash gaplarning bosh gapda qaratqich aniqlovchi vazifasida kelgan havola bo'laklarni tushirib qoldirsak va so'zlar tarkibini o'zgartirsak qo'shma gap birikmali aniqlovchili sodda gapga aylanadi. Demak bu o'rinda ikki havola bo'lakli aniqlovchi ergash gapning transformatsiyalanish jarayoni sodir bo'ldi.

Quyidagi aniqlovchi ergash gapning transformatsiyalanishiga e'tibor qaratsak: "Shunday odamlar borki. O'zlarida hech nima yo'q, boshqalarning mulkiga hasad qiladilar". Ushbu gap bir havola bo'lakli aniqlovchi ergash gap bo'lib "shunday" havola bo'lak ishtirok etmoqda. Ushbu gapning transformatsiyalangan ko'rinishi quyidagicha bo'ladi: "O'zlarida hech nima bo'lmasa ham boshqalarning mulkiga hasad qiladigan odamlar bor". Ushbu jarayonda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap mazmuni saqlangan holda sodda gap ko'rinishiga aylantirildi.

Aniqlovchi ergash gaplarni transformatsiyalash jarayonida havola bo'laklar va bog'lovchi vositalarning ham o'рни mavjud. Ma'lumki aniqlovchi ergash gaplar bosh gapga "shunday, bunday, unday, kimning, nimaning, ba'zi" va boshqa havola bo'laklari va –ki, -sa bog'lovchilari orqali birikadi. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar qanday grammatik vositalar orqali birikmasin, ular sodda gaplarga transformatsiyalanadi. Aniqlovchi ergash gapli

qo'shma gaplar transformatsiya qilingandan so'ng ham qo'shma gapdan anglashilgan mazmunni saqlab qoladi.

Adabiyotlar:

1. Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. –Toshkent, “O'qituvchi”, 1984.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. –Toshkent, “O'qituvchi”, 1995.
3. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1978.
4. Sayfullaeva R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning shakl va vazifaviy tahlili. – Toshkent, 1991.